

## Dinning ijtimoiy, ahloqiy funksiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali Kompyuter injiniringi fakulteti KI 23.03-guruh talabasi

**Masharipov Xasan**

Ilmiy rahbar: Falsafa fanlari doktori **Samadov Xurshid**

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axloq va iymon tushunchalariga doir muhim masalalarning ilmiy nazariy va jamiyatda tutgan o'rnini falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, axloq falsafasining milliy va umumbashariy ahamiyati shaxsni har tomonlama tarbiyalashda axloq va iymon tushunchalarining o'rnini masalalariga yangicha yondashishga urinilgan. Bu maqolada ko'proq din qanday ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tilgan.

#### **Kalit so'zlar:**

Din, axloq, iymon, huquq, qadriyat, jamiyat, aql, davr, globallashuv.

#### **ABSTRACT**

This paper provides a philosophical analysis of the most important issues concerning the concepts of morality and faith, their role in scientific theory and society. An attempt was also made to approach the issues of the national and universal significance of moral philosophy, the role of the concepts of morality and faith in the comprehensive education of the individual in a new way.

#### **Keywords:**

Religion, morality, faith, law, value, society, reason, epoch.

Din (arabcha: دین – „e'tiqod“, „ishonch“, „itodat“) jamoat tomonidan shifrlangan qadimiy yozuvlar, mifologiya va rituallarga qat'iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to'plamidir[1]; shuningdek, shaxsiy e'tiqod hamda mistik kechinmalardan iborat bo'lishi ham mumkin. „Din“ atamasi ham jamoat e'tiqodiga oid shaxsiy amaliyotlarni, ham guruh tomonidan bajariluvchi rituallarga qo'llanadi.

Barcha patriarxal dinlar bir g'oyani ilgari surishadi: olam va odamlarni ikkiga, biri muqaddas, boshqasi kufir bo'lgan qismlarga bo'lish. Din odatda hech kim tomonidan kuzatilmaydigan va aniqlanmaydigan, g'ayritabiiy, muqaddas, eng yuqori shaxs yoki mavjudotga fokuslangan o'zak e'tiqod ustiga qurilgan ijtimoiy tizim, deb ham ta'riflanadi. An'analar, qadriyatlar, institutlar, rituallar va diniy matnlar o'zak

e'tiqod bilan bog'liq ko'riladi, va bulardan ba'zilari sekyular falsafa bilan mos tushmasligi mumkin. Dinni shuningdek „turmush tarzi“ ham deyishadi.\

„Din“ so'zini ba'zi hollarda „e'tiqod“ ma'nosida ham qo'llashadi, lekin bu doim o'rinli emas, zero e'tiqod shaxsiy ishonchdan iboratdir, aslo ijtimoiy tizim emas.

Din – xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din – Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir.

Dinshunoslik - dinlar tarixi, ular bilan bog'liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o'zaro ta'sirlashuvini o'rganuvchi fan. Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori ham o'zining o'rganish obyektiga ega. U dinning paydo bo'lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsiyasini ilmiy jihatdan o'rganadi. Dinlarni o'rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon-atrofidagilarning e'tiqodi, qaysi dinga mansubligiga qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma'lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri “tarix otasi” nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) o'zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma'lumotlar keltirgan. Bu qiziqish o'rta asr Yevropasida ham mavjud bo'lgan. Lekin boshqa dinlar haqida fikr bildiruvchilar, xristianlarning e'tiborini jalb qilmaslik va ularni boshqa dinlarga kirib ketmasliklarini ta'minlash maqsadida, u dinlarga nisbatan salbiy fikr bildirish, ularni yomonlash orqali ularga yondashishni ma'qul deb topganlar.

Dinning mohiyati va jamiyat hayotida tutgan o'rni ilohiyot va fanda turlicha talqin etiladi. Ilohiyotshunoslar fikricha – din xudo tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy qilinishi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. U azaldan insonning xudo bilan aloqa qilish ehtiyojidir.

Din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongini, yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir «to'g'ri», «haqiqat» va «odil» hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rganadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta'limotdir.

Dunyoviy, ilmiy nuqtai nazar bo'yicha esa din, ijtimoiy – tarixiy hodisa. Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Din – muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat – ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, odam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Olamda odamlar jamoasi paydo bo'lganidan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks ettirishdir. Dinning nima ekanligi turlicha izohlansa – da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoqlik tuyg'usidir. Bu tuyg'u insonning eng teran va go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Darhaqiqat, «dunyoda dini, ishonchi, ehtiqodi bo'lmagan xalq, elat, millat yo'q. Chunki biron – bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biror – bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Shuning uchun har qanday din jamiyatda ma'lum ijtimoiy, ma'naviy, ruxiy va ko'pgina boshqa vazifalarini bajaradi.

Dinning funksiyalari hozirgi dinshunoslik fanida juda keng turli konsepsiyalarga ko'rsatiladi. Din kishilar hayotida o'z qavmlari uchun to'ldiruvchi, ovutuvchi (kopensatorlik) funksiyani bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj paydo bo'lib turadi. U o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat, o'zga insonlar bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida hayotiy ehtiyoji, maqsadlariga yetishishi ilojsiz bo'lib qolganda, unda qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zarurat sezadi.

Xulosa qilib aytganda inson hayotida dinning qanchalar yuqori o'rin egallagani, ta'lim, tarbiya masalalaridagi biqiyos o'rni haqida gapirishimiz mumkin. Din biz uchun juda muhim o'rin egallaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Din>
2. <https://moturidiy.uz/oz/news/518>
3. <https://sammuslim.uz/oz/articles/diniy-va-dunyoviy-bilimlar-uygunligi?print=on>

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

4. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12556\\_1\\_35F3DD02C863916D046B5EC40CFB0B09897E729C.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12556_1_35F3DD02C863916D046B5EC40CFB0B09897E729C.pdf)
5. <https://kun.uz/uz/71643641>
6. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=145v>
7. [https://religions.uz/uz/news/detail?id=405&sa=X&ved=2ahUKEwjKj73n1Y\\_nAhUHLVAKHaIZAIEQFjAEegQICBAB](https://religions.uz/uz/news/detail?id=405&sa=X&ved=2ahUKEwjKj73n1Y_nAhUHLVAKHaIZAIEQFjAEegQICBAB)